

**O‘ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKASINING TA’LIM SOHASIDAGI
ALOQALARI VA TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KOREYA
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH**

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

Ne‘matov Rustam Abduvaid ugli

Tarix yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Kuvondikova Gavhar Farxodovna

<https://orcid.org/0000-0003-2465-5303>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi hamkorlik yo‘nalishlari va ularni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, ikki mamlakat o‘rtasida oliy ta’lim, kasb-hunar ta’limi, texnik va professional ta’lim sohalarida olib borilayotgan qo‘shma loyihalar, almashinuv dasturlari, grantlar va stipendiyalar haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, koreys tilini o‘rganish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar ko‘rib chiqiladi. Mazkur hamkorlik ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, yosh avlodga zamonaviy bilim berish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Koreya ta’lim markazi, KOICA, Inxa universiteti, Adju universiteti, 2+2, Puchon universiteti, Yueji instituti.*

Abstract: *This article analyzes the areas of cooperation in the field of education between Uzbekistan and the Republic of Korea and the prospects for their development. In particular, information is provided on joint projects, exchange programs, grants and scholarships in the fields of higher education, vocational education, technical and professional education between the two countries. It also considers initiatives to study the Korean language and improve the skills of teachers. This cooperation serves to strengthen friendly relations between the two countries, provide modern knowledge to the younger generation, and introduce innovative approaches.*

Keywords: *Korean Education Center, KOICA, Inha University, Adju University, 2+2, Puchon University, Yueji Institute.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohatlarning sosiy maqsadi yurtimizda sog‘lom barkamol, bilimli va yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega bolgan yosh avlodni shakllantirish. 1992- yil 2-iyul kuni "Ta'lim tog'risida" birinchi qonun qabul qilindi. Asosiy vazifasi respublikada ta'lim mustaqilligini ta'minlash, uning milliy lashtirishni ta'minlash ta'lim yolidagi tosiq oladigan vositalarni olib tashlash, mustaqil tarzda chet el ta'limi bilan hamkorlik kabilar kiritilgan. 1997- yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim tog'risidagi" Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlar mustaqil ravishda 9 yillik umumiy ta'lim va 3 yillik akademik

litsey,orta maxsus kasb hunar ta'limini joriy etdi. 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim tog'risida"yangi qonun qabul qilindi.Asosiy maqsad ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uning sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish barkamol avlodani tarbiylash va bilimli inovvatsion fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash.Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarin keng joriy qilish masofaviy oqitish tizimini rivojlantirish kabilardir. Maktabgacha ta'limning majburiyligini joriy etildi,umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni majburiy va bepul ekanini ta'kidlaydi.O'zbekistonda ta'lim tizimini xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan integratsiya qilishda xalqaro standartlarga mos o'qitish dasturi va baholash tizimlarini joriy qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Umumiy o'rta ta'limda 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta tiklandi,yangi o'quv dasturlari joriy qilinib,o'quvchilar zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashga yo'naltirildi. Ozbekiston va Koreya ta'lim sohasidagi islohotlari bir-biriga oxshash jihatga ega.

Quydagida ikki davlating ta'lim islohotlari qisqacha islohatlari qisqacha taqqoslab berilgan:Ozbekistonda maktabgacha ta'limni qamrab olish oshirildi,yangi davlat va xususiy bog'chalar ochildi.Majburiy maktabgacha ta'lim joriy qilindi.Koreyada:maktabgacha ta'lim universal bolib har bir bola bog'chada oqish imkoniyatga ega.Hukumat subsidalar orqali ota-onaning harajatlarini kamaytiradi.Umumiy o'rta ta'limda O'zbekistonda 11 yillik o'rta ta'lim qayta tiklandi,elektron kundalik va online ta'lim paltformasi joriy etildi.Koreyada:12 yillik ta'lim (6 yil boshlang'ich ta'lim 3 yil orta 3 yil yuqori maktablari.Amalda suniy intellekt va kodlash kabi zamonaviy fanlar boshlang'ich sinfdan boshlab o'qitiladi.Oliy ta'limda:Ozbekistonda kredit modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi.Talabalar soni ko'paytirish uchun qabul kvotalr ko'paytirildi,oliy ta'lim muassasalari soni ko'paytirildi.Koreyada:oliy ta'lim sohasida raqobat juda kuchli,dunyo miqysida yuqori baholanadigan universitetlari mavjud (masalan SEUL Milliy universiteti,Yonsey. Koreya respublikasi hukumati ta'lim tizimida sinovdan o'tgan va juda ham samarali hisoblangan siyosatni olib Koreya maktablarida kompyuterlashtirish va internet tarmog'iga erkin ulanishni ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash vaziyatlar qaror topmoqda.Ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jadal ta'minlashga davlat tomonidan katta moliyaviy mablag'lar ajratilmoqda. Maktab tizimini qayta qurishning strategik rejalari ishlab chiqishdi.Moliyalashtirish masalalarida xorij tajribalasini joriy etdi.Masalan Janubiy Koreyada yosh o'qituvchilarning maoshi 2000-2500 AQSH dollarini tashkil etadi. Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish ustidan so'z yuritar ekanmiz bu mamlakatda har yili 5 ming muhandis yetishtiriladi, IT bo'yicha ularining umumiy soni 500 mingdan oshgan . Koreyada mamlakat xorij tajribasidan keng foydalanadi. Chet ellik olimlarni o'ziga jalb etishga harakat qiladi.

1992-yildan Toshentda Koreya talim markazi faoliyat ko'rsatmoqda.Ushbu markaz oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talabalariga koreys tili va madaniyati bo'yicha trening o'tkazadi.Shuningdek O'zbekiton jahon tillari universiteti,va Samarqand chet tillari instituti, Koreys tili va madaniyati markazlari,Toshkent axborot texnologiya

universitetida Axborot texnologiyalar markazi tashkil etilgan. Toshkentda "O'zbekiston - Koreya" kasbga tayyorlash markazi faoliyat yuritmoqda. Bu markazda har yili 360 nafar yigit-qiz kompyuter yig'ish grafikasi elektron texnikasi ta'mirlash va avtomobilga xizmat korsatish sohasi bo'yicha tahsil oladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Koreya Respublikasi bilan samarali hamkorlik qilish maqsadida Toshkent sharqshunoslik institutida koreys filologiyasi kafedrasida faoliyati yo'lga qo'yilib Sharqshunoslik institutining talablari Seul va Gyengsang Milliy universitetlarida ilmiy izlanishlar va ko'nikmalar olib kelmoqda. O'zbekiston davlat jahon tili universiteti 1995-yildan Koreys tili ikkinchi til sifatida o'qitila boshlagan. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) O'zbekistonda 2007-yil faoliyatini boshlagan. Ushbu davr mobaynida KOICA O'zbekistonda kasb-hunarga o'qitish imkoniyatlari rivojlangan ta'lim tizimini takomillashtirish va boshqa sohalarda bir qator loyihalar amalga oshirdi. Masalan, 2007 - 2010 yillarda KOICA tomonidan O'zbekistonda kasb-hunarga o'qitish imkoniyatlarini rivojlantirishga 4 milliard dollar miqdorida grand mablag'lari ajratilgan. Shuningdek, 2016- yilda Toshkent shahrida KOICA ishtirokida tashkil etilgan kasb-hunarga o'qitish markazi ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish uchun faoliyat yuritmoqda.

2014-yil Toshkentda Markaziy Osiyoda Inxa universitetining yagona filiali ochildi. Uni tashkil etishdan maqsad jamiyat va millat taraqqiyoti uchun yurtimizda axborot texnologiyalar sohasini rivojlantirish yo'lida o'z hissasini qo'sha oladigan yuqori malakali har tomonlama barkamol mutaxassislar yetishib berishdir. Bugungi kunda, Inha universiteti Janubiy Koreyadagi eng rivojlangan universitetlarining yuqori o'ntaligidan (Top10) o'rin olgan. Universitetning texnika va muhandislik fakultetlari esa, mamlakatning "Eng yetakchi universitetlar" reytingida to'rtinchi o'rinni egallagan. Universitetning yutuqlarga yetaklovchi shiori uch muhim sifatni birlashtiradi: «Ijodkorlik, mehnatsevarlik va jamiyatga xizmat qilish».

ADJU universiteti O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 30-noyabrdagi PQ-4041-sonli qaroriga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda ADJU universiteti (Koreya Respublika) – ta'rischilari hamkorligida „Toshkent shahrida ADJU universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi“ tashkil etildi. 2020/2021 o'quv yili uchun Toshkent shahridagi Adju universiteti bakalavriatning uchta yo'nalishi: Arxitektura, Qurilish tizimlari muhandisligi, elektrotexnika va kompyuter injiniringi yo'nalishlarida tahsil olish uchun dastlabki 420 nafar talabaga o'z eshiklarini ochgan edi. Universitet ta'lim jarayonlariga Toshkent shahridagi ADJU universiteti rektori Muratov G'ayrat Azatovich boshchilik qiladi. Universitetda bugungi kunda bakalvir ta'lim darajasida 1128 ga yaqin talaba tahsil olmoqda. Filial yiliga uch marta talabalarni qabul qiladi. Shu tartibda, qabul qilingan guruhlar Sentabr oyida o'qishni boshlaydilar. O'qitish tizimi ais.ajou.uz elektron ta'lim platformasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu elektron ta'lim platformasi kompyuter va mobil uyali aloqa telefonlariga yuklangan holda, uy vazifasi va topshiriqlarni yuklash, fanlarning onlayn muhokamasida ishtirok etish, olingan bilimlarni

mustahkamlash uchun onlayn testlarni bajarish va o'qituvchi bilan bevosita onlayn aloqa qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-24-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga davlat tashrifiga bag'ishlab o'tkazilgan Koreya-O'zbek "Biznes-Forum"i doirasida, Koreyalik va O'zbekistonlik hamkorlar o'rtasida Toshkent shahrida Yuedju texnika institutini tashkil qilish haqida Memorandum imzolangan. Imzolangan Memorandumga asosan 2018-yil 24-iyul sanasida Toshkent shahridagi Yuedju texnika instituti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan taqdim etilgan davlat litsenziyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasa maqomiga ega bo'ldi. Toshkent shahrida Yuedju texnika institutining tashkil etilishi Respublikamizda yangi ish o'rinlar yaratilishi bilan bir qatorda, ta'lim sektorida sog'lom raqobat muhitining paydo bo'lishi, yoshlarning o'zlari hohlagan va innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olishi, ta'lim va sanoatning chambarchas bog'lanishi, ta'lim va kadrlar sifatini oshishi, davlat byudjetiga tushumlarni ko'payishi va byudjetdan qoplanadigan sarf xarajatlarni kamayishi va ta'limga oid boshqa masalalarning ijobiy yechimiga olib keladi. Institut ta'lim faoliyatini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda Yuedju texnologiya institutining (Koreya Respublikasi) o'quv rejalari asosida o'zbek, rus, ingliz tillarida amalga oshiradi. Talabalar 2+2 modeli bo'yicha almashinuv dasturlarida ishtirok etishlari, ya'ni ikki yil Toshkentda o'qib, so'ng ikki yil Koreyadagi oliygohlarda o'qishini davom ettirishi hamda bir nechta diplom egasiga aylanishi mumkin. 2021 yil ilk bor xalqaro oliy ta'lim maskanlari orasida Yuedju texnika institutining filiali Namangan shahrida tashkil topdi. 2022- yil 28- iyulda Samarqandda Yueju instituti tashkil ochilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi "Toshkent shahrida Puchon universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3821-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Universitetni tashkil etish bo'yicha tashabbuskorlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Puchon universiteti (Koreya Respublikasi) hisoblanadi.

Universitetning asosiy maqsadlari yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ilg'or xorijiy tajribani joriy etishdan iborat. O'quv jarayoni: o'quv rejasi, baholash tizimi, o'qitish usullari Puchon universiteti (Koreya Respublikasi) ta'lim tizimiga asoslangan. Asosiy professor-o'qituvchilar tarkibi Puchon universiteti (Koreya Respublikasi) va O'zbekiston Respublikasining yetakchi pedagoglaridan iborat.

Farg'ona shahrida Koreya xalqaro universiteti (KIUF) universitetida 3+1 dasturi mavjud bo'lib 2 ta diplomga ega bo'linadi. Toshkentda Koreya metodologiyasi bo'yicha tashkil etilgan 324- sonli maktabgacha ta'lim maskani faoliyat yuritadi. Hozirda Toshkentdagi Koreya ta'lim markazi O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan 55 ta maktabni boshqaradi. 13 ta oliy ta'lim muassasasida, 28 ta maktab va litseyda koreys tili

o'rgatiladi. O'zbekiston Janubiy Koreyadagi talabalar soni bo'yicha yetakchi 3 ta davlatga kiradi deb xabar bermoqda Yonhap agentligi Milliy statistika xizmati va Janubiy Koreya Adliya vazirligiga tayanib. 2023-yilning may oyida Koreyada tahsil olgan 188 ming nafar chet ellik talabaning 6,4% O'zbekiston fuqarolari bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nafaqat Koreya Respublikasi tajribasini, balki jahonning boshqa ilg'or mamlakatlarining ta'lim sohasida olib borayotgan siyosati tajribasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ta'limni xarajat qiluvchi soha emas, balki jamiyatning eng muhim ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirish lozim. Ya'ni ta'lim raqobatbardosh bo'lishi, jiddiy moliyaviy mablag'larni o'ziga jalb eta olishi kerak. Boshlang'ich maktabning birinchi pog'onasidan boshlab ta'limni iqtisodiyotni, umuman davlatni rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Faqat bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va jamiyat hayotida foyda keltirishiga harakat qilish zarur.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova Barno Xolmurzaevna "Maktabgacha ta'lim boshqaruvida xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmi" // ReFocus. 2022.
2. Isaqulova N.J, Qosimova Z.H. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim(ma'ruza) T., 2011
3. Li Dji Yun. Koreya va O'zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi.//Jamiyat va boshqaruv, 2009. №1.
4. V.S.Xan. Koreya tarixi. Toshkent-2011.
5. Xalq so'zi gazetasi. 1996-yil 15-fevral..
6. Xalq so'zi gazetasi. 2005-yil 10-may
7. <http://kor.theasian.asia/archives/199418>.
8. Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. American Journal of Philological Sciences, 5(02), 10-16.
9. Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(12), 72-78.
10. Nematov, R. A. (2024, December). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49).
11. Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

12. Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(9), 70-74.
13. Маргилоний, М. А. (1999). Тарихи Азий. Тошкент: Маънавият.
14. Сангирова, Д. Х. (2000). Тарихи Азизи. важный источник по истории изучения царского колониального периода: автореф.... канд. ист. наук. Ташкент, 1-2.
15. Sangirova, D. (2019). Hajj and the ruling pilgrims. A look at the past, (18), 27.
16. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(7), 540-545.
17. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFT'S TEACHING ABOUT BEING. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 61-67.
18. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. Вестник Российского философского общества, (1-2), 200-209.
19. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). Проблемы современной науки и образования, (11 (53)), 44-45.
20. Urazalievna, A. G., & Fotima, X. (2024). TURKISTON QO'RBOSHILAR HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 5-10.
21. Urazalievna, A. G., & Aziza, P. (2024). FARG'ONA VODIYSIDAGI ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(1), 12-15.
22. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(1).
23. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. World Bulletin of Social Sciences, 16, 86-87.
24. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(5), 61-65.
25. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. Science and innovation, 3(Special Issue 6), 426-431.
26. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 73-78.
27. Кудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. RESEARCH AND EDUCATION, 236.

28. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 2(12), 13-16.

29. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. Социосфера, (4), 226-232.

30. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. Наука и образование: проблемы, идеи, инновации, (4), 26-30.

31. Дубков, В. В., Абдирахатов, Х., Джанибекова, Н. А., & Шодмонкулова, М. (2012). ОДНА ЗЕМЛЯ, ЕДИНОЕ ЧЕЛОВЕЧЕСТВО (Тезисы проекта Идеологии планетарного единства). In ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (pp. 94-99).

32. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 6(01), 4-7.

33. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. News of the NUUz, 1(1.2. 1), 23-26.

34. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).